



Oila instituti va uning ijtimoiy falsafiy ahamiyati

Usmanova Shohsanam

Igamberdiyev Doniyorjon

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchilari

Mamurova Mushtariybonu Shuhratbek qizi

Botirova Mubina Foziljon qizi

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Fizika

yo'nalishi 101-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila instituti, oilani jamiyatda tutgan o'rni va falsafiy ahamiyati yani insonlarning hayoti, tarbiyasi va ma'naviy kamoloti haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, nikoh, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy rol, ijtimoiy maqom, oilaviy muhit, mahalla.

Abstract: This article discusses the place of the family institution in society and its philosophical significance that is the nature of human life and spiritual maturity.

Keywords: Family ,society, marriage, interpersonal relationship, social role, social status, family environment, neighborhood.



Аннотация: В статье рассматривается место института семьи в обществе и его философское значение то есть воспитание и духовное развитие человека.

Ключевые слова: Семья, общество, брак, межличностные отношения, социальная роль, социальная статус, семейное окружение, соседство.

„Hayotda eng katta narsa har bir inson uchun bu oila.Oila men uchun muqaddas.Muqaddasligi shuki,avvalambor,qayerda ishlashingdan ,kim bo'lishingdan qat'iy nazar,oilada tarbiya ,muhit,halollik,mehr-oqibatga e'tibor berilmasa,hech qachon kerakli natijaga erishilmaydi.Shuning uchun men farzandlarimning tariyasiga juda katta e'tibor berganman.Farzandimga ham,nevaramga ham alohida munosabatim bor,har birining niyatini,istagini bilaman.Agar oila bilan bo'lsang,o'zingni baxtli deyishga to'liq haqqing bor.Faqat oilam emas,xalqim ham baxtli bo'lsa,men o'zimni baxtli his qilaman”

Sh.Mirziyoev

Oila-nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh.Uning a'zolari ro'zg'orining birligi,o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan.Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari-inson zotini davom ettirishdan,bolalarni ,tarbiyalashdan,oila a'zolarining turmush haraitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir.Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo'lsada,jamiyatdagi mavjud ijtimoiy,iqtisodiy,mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi.Shunga muvofiq,har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi



Oila tarbiyasi oilada ota-ona yosh avlodni har tamonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oilada ruhiy hotirjamlik, samioymiy munosabat ota-ona obro'sini yuqori bo'lishi birdamlilik bolaga mehnatni o'rgatish, bolani sevish, izzatini joyiga qo'yish oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolani o'zgarishlarini kuzatib borish mustaqqillikka o'rgatish. Munosabatlar samiy bo'lsa oila tarbiyasini shunchalik muofaqyatli bo'ladi. Oiladi bola bilan tarbiyachi o'rtasida juda yaqin va samiyiy munosabat o'zining tabiligi va oddiyligi mazmundorligi, iliqligi hech qanday rasmiyachilikning yo'qligi bilan ajralib turishi lozim.

Insonning manaviy aqli hislatlarini uning olgan tarbiyasi yashagan muhiti belgilaydi. Shu o'rinda quyidagi fikrni keltirishimiz lozim. Abdulla Avloniy aytganidek tarbiya yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo najotdir. Yaxsi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa noto'g'ri tarbiya uning baxtsizlikka hatto alokatga aylanishi uqtirgan. Suning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatirda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergan. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta muddatdir. Tegishli tarbiya berilmasa bu holda maktabning ya'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi. Ijtimoiy edagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni umumiy qonuniyatlar tamoyili va metodlarga doir bilimga ega bo'lmoq lozim.

Oila odamzot o'zining dastlabki ijtimoiy yo'lini bosib o'tadigan eng muhim sohadir. Bunday oilada ota onalar bilan bolalar o'rtasida malum manoda izzat hurmat va dilidan ishonch kabi chegara bo'ladi. Oilada bolalarning o'zga bir oilada hech bir holda yo'l qo'ymaslik kerak, bola yotib qoladigan joy tanish va ishonchli bo'lgan taqdirdagina rozi bo'lish mumkin oilada farzand yaxshi tarbiyalasa, ota onaning baxti, yomon farzand esa ota onaga kulfat keltiradi. Oilada va jamoatchilik hamkorligi yosh avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir. Yoshligidan boshlab bir ishga o'rgatish, unga o'ziga xos yumush berib ishga odatlantirishdir bola ham ish organadi



ham jamiyatda oilada o'z o'rnini topishga harakat qiladi bolada mehnatga munosabat,ota onasiga munosabati,oila azolariga nisbatan fikri dunyo qarashi o'zgaradi.

Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi.Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va manaviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa,oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo'llab-quvvatlanishi,ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi.

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy,etnik,jinsiy,yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan eng nozik va hal qiluvchi munosabat shakli bo'lib hisoblanadi.

Psixologik va sotsiologlarning fikricha,birinchi nigohdagi yoshi 0 dan oshmagan kelin-kuyovlar yosh oila hisoblanadi.Odatda yosh oila tushunchasi oilaviy hayotning dastlabki 10 yilini o'z ichiga oladi.

Mahalla bugungi kunda shunchaki oilalar hamjihatligixamkorligi,ularning talab va ehtiyojlari,manfaatlarini ifodalovchi institute sifatdagina emasaksincha,davlat siyosatini amalda tatbiq etuvchi,ularni har bir oilaga yetazishda muim siyosiy-ijtimoiy,madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshiruvchi,o'z –o'zini boshqarishni amalda joriy etiruvchi,oilalarni jamiyatdagi syosiy va siyosiy bo'lmagan institutlar bilan bog'lab turuvchi bo'g'in hamdir.

Hulosa: Jamiyatda oilaning o'rni va oilaga yuklatilgan vazifalar juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.Oilada birdam va hamjihatlik bo'lsa albatta u yerda baraka,mehr-muhabbat bo'ladi.Oilada hamjihatlik bo'lishi uchun er –hotin bir-birini tushunishlik bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila psixologiyasi:Darslik.Pedagogika oliygohlari talabalari uchun B.M.Karimova.-T.:2007.22-b.
2. Platon.Zakoni//Soch.:v t.-M:1972.-T..-Ch.2.-C.18-150
3. Karimova B. Oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayorlash muammolari//„Yoshlar muammolari va ularning yechimi:xolat va istiqbol”mavzusidagi Resp.ilmiy-amaliy anjumani materiallari-T.:2002.-B.30-3.
4. Karimova B.Oilaviy hayot psixologiyasi:O'quv qo'llanma.-T.:2006.-12 b.
5. Oila psixologiyasi:akad.litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma./G.B.Shoumarov,I.O.Haydarov,N.A.Sog'inov va boshqa;; G'.